

## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIYOTIDA MEHNAT MIGRATSIYASINING O‘RNI, IQTISODIYOTDAGI MIGRATSIYA FOYDALARINI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI

*Farg‘ona davlat universiteti*  
*Iqtisodiyot fakulteti 1-bosqich talabasi*  
*Mamasodiqov Salimbek G‘ofurjon o‘g‘li.*  
*[progsalimbek@gmail.com](mailto:progsalimbek@gmail.com) +998905624526*

**Annotatsiya:** Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish ko‘plab soha va tarmoqlarning izchil hamda uyg‘un ravishda umumiy rivojlanishini talab qiladi. Bu jarayonda migratsiya, ayniqsa, mehnat migratsiyasi iqtisodiyotning muhim, ammo ko‘p hollarda ko‘rinmas va e‘tibordan chetda qoladigan bo‘g‘inlaridan biri sifatida alohida o‘rin tutadi. Ushbu maqolada aynan migratsiyaning asl mohiyati nimalardan iborat ekani, mehnat migratsiyasi haqida mavjud bo‘lgan tarixiy qarashlar, hamda bu jarayonning ayniqsa so‘nggi yillarda O‘zbekiston misolida qanday shakllanib, rivojlanib borayotgani haqida atroflicha to‘xtalib o‘tilgan. Shu bilan birga, ishchi kuchi migratsiyasining mamlakat iqtisodiyotiga ta‘siri keng ko‘lamda o‘rganilib, mavjud holat tahlil qilingan va uni yanada yaxshilash uchun amaliy tavsiyalar berilgan. Mazkur maqola O‘zbekistonda migratsiya jarayonining iqtisodiy jihatdan qanday natijalar keltirayotgani, uning ijobiy va salbiy tomonlari, olib kirilgan moliyaviy resurslar va boshqa ko‘plab dolzarb masalalarni yoritishga harakat qilgan. Shu orqali kerakli xulosalar chiqarilib, mamlakat iqtisodiy siyosatida ushbu yo‘nalishning o‘rni yanada chuqurroq tushunishga imkon yaratilgan.

**Kalit so‘z:** mehnat migratsiyasi, optimistik qarashlar, pessimistik qarashlar, migrant sindromi, emmigratsiya, immigratsiya, ishchi kuchi resurslari, majburiy migratsiya, brain drain (malakali kadrlarning chiqib ketishi), tashqi iqtisodiy aylanma.

**Kirish.** Iqtisodiyotda muhim ko‘rsatkichlardan biri migratsiya hisoblanib, u ishchi kuchi bozori, mamlakatga olib kiriladigan pul o‘tkazmalari, demografik muvozanat va tadbirkorlik kabi unsurlarga o‘z ta‘sirini o‘tkazadi. Migratsiya – bu mamlakat ichki hududida yoki xalqaro doirada bir hududdan boshqa hududga doimiy yashash yoki vaqtinchalik biror sabab bilan borish demakdir. Turli shaxslar migratsiyaning foyda yoki zararliligi haqida baxsga kirishadilar. Iqtisodiy tomondan uning ish haqi va mehnat munosabatlaridagi roli tahlil qilinsa, boshqa tomondan migratsiyaning sifatli kadrlar ko‘lamiga ta‘siri va buning uzoq vaqtdagi oqibatlarini tahlil qilinadi. siyosatshunoslar va boshqalar tomonidan migratsiya va rivojlanish o‘rtasidagi bog‘liklik turlicha tahlil qilingan. Migratsiya ustidagi qarashlar bir necha davrlarga va yondashuvlarga bo‘linadi va uning XX – asrning 50- yillaridan keyingi davrdagi holati tahlil qilinadi.

1. 1973-yilgacha, rivojlanish va migratsiya o‘rtasidagi ijobiy qarashlar mavjud bo‘lib developmentalistlar fikriga ko‘ra kapital va bilim aylanmasi rivojlanayotgan davlatlarning istiqbolida ijobiy rol o‘ynaydi, immigratsiyadan so‘ng davlatga qaytish bo‘lishi kerak deb ishonishadi.

2. 1973-1990 – yillar, rivojlanish va migratsiya o‘rtasidagi pessimistik qarashlar, bu davrdagi fikrlar turli shubhalarning o‘sishi bilan bog‘liq bo‘lib, brain drain [1], (ya‘ni kuchli kadrlarning mamlakatdan chiqib ketishi va qaytib kelmasligi), qabul qiluvchi mamlakatlarda integratsiyaga yo‘naltirilgan qaytish migratsiya siyosati

bo'yicha tajribalar bo'ldi. Migratsiya asosan rivojlanish sohasida ko'zdan g'oyib bo'ldi, immigratsiya siyosatini kuchaytirildi.

3. 1990-2001 – yillar, Ta'sir ostida yanada nozik qarashlarga o'zgartirishlar kiritish, tajribaga asoslangan loyihalar (NELM, tirikchilik yondashuvlari, transnatsionalizm)

4. 2001 < yillar, tadqiqotlarda katta burilish bo'ldi, ayniqsa, pul o'tkazmalariga doirida. Asosan migratsiyaga pozitiv yondashuvlar qayta tiklandi.

### **Asosiy qism. Optimist qarashlar: Neoklassik va developmentalist nazariyalari.**

Neoklassikal migratsiya nazariyasi migratsiyani ishlab chiqarish omillarining ham qabul qiluvchi, ham yetkazib beruvchi mamlakatlar orasida optimal taqsimlanishida asosiy omil sifatida ko'radi. Ushbu “muvozanatli o'sish” nazariyasida ishchi kuchlarining qishloq hududlarida shahar hududlariga, qishloq xo'jaligidan sanoatga o'tishi (ham ichki, ham tashqi migratsiya holatida) iqtisodiy o'sish uchun asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Rivojlanish nazariyasida 1950 va 1960 yillarning hukmron qarashlariga ko'ra, qaytib kelgan muhojirlar o'zgarish va innovatsiyalarning muhim agentlari sifatida qaraldi. Migrantlar nafaqat pulni, balki yangi g'oyalar, bilimlar va tadbirkorlik munosabatlarini ham qaytarishlari kutilgan edi.

Xuddi shu urushdan keyingi davrda rivojlanayotgan mamlakatlardan rivojlangan mamlakatlarga keng ko'lamlı mehnat migratsiyasi tezlasha boshladi. Ko'pchilik ishchi kuchi katta bo'lgan mamlakatlar migratsiya jarayoniga mehnat bozoridagi holatni normallashtirish uchun kirdi. Rivojlanayotgan mamlakatlar hukumatlari, masalan O'rta er dengizi, emigratsiyani faol ravishda rag'batlantira boshladi, ular migratsiyani rivojlantirishning asosiy vositalaridan biri deb hisobladilar.

[2]

### **Pessimist qarashlar: ortib borayotgan sabablar va “migrant” sindromi.**

1960-yillarning oxiridan migratsiya haqidagi optimistik qarashlar tarixiy-strukturalistik va qaramlik nazariyalari tomonidan tobora ko'proq e'tiroz bildirildi. Ushbu istiqbollari migratsiya tengsizliklarni kamaytirish o'rniga, mintaqaviy va xalqaro iqtisodiy nomutanosiblikni chuqurlashtirganini ta'kidladi. Migratsiya global kapitalistik ekspansiyaga javob sifatida qaraldi, bu esa uni yumshatish o'rniga kam rivojlanganlikni davom ettirdi. Asosiy tashvish “miya oqimi” edi, bu davlatda malakali ishchilar kambag'al mamlakatlardan ko'chib, ularning allaqachon kam bo'lgan inson kapitalini tugatgan. Bu ta'lim va ta'limga sarmoya kiritgan rivojlanayotgan davlatlar uchun yo'qotish sifatida qaraldi. Bundan tashqari, bir vaqtlar foydali hisoblangan pul o'tkazmalari endi ishlab chiqarish investitsiyalarini emas, balki iste'mol va inflyatsiyani kuchaytiruvchi sifatida ko'rildi.

Ushbu go'ya o'zgarishi migratsiyaning iqtisodiy rivojlanishdagi rolga nisbatan tanqidiy nuqtai nazarga olib keldi va uning potentsial foydadan ko'ra jo'natuvchi mamlakatlarga salbiy ta'sirini ta'kidladi.

“Migrant sindromi” mamlakatda keng ko'lamlı emigratsiya, xususan, malakali ishchi kuchini yo'qotish, pul o'tkazmalariga qaramlikning kuchayishi va

mahalliy mehnat bozorlaridagi buzilishlar tufayli yuzaga keladigan iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni anglatadi. U jo‘natuvchi mamlakatlarning rivojlanishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadigan uzoq muddatli salbiy ta‘silarni, jumladan, kuchli kadr yetishmovchiligi, ishchi kuchining etishmasligi, iqtisodiy qaramlik va demografik nomutanosibliklarni tasvirlaydi.

Shu va shunga o‘xshash turli g‘oyalar olimlar o‘rtasida har xil qarashlarni keltirib chiqardi.

Migratsiyaning turlari.

1. Ichki migratsiya – mamlakat ichki hududida, provinsiyalar yoki shaharlar o‘rtasida sodir bo‘ladigan tur.

2. Tashqi migratsiya – mamlakatning boshqa mamlakatlar bilan qiladigan migratsiyasi, bir davlatdan boshqa davlatga ishlash, yashash yoki o‘qish uchun borishi.

- Immigratsiya - chet elda doimiy yashash uchun kelish harakati.
- Emigratsiya - o‘z mamlakatini tark etib, boshqa davlatga doimiy yashash uchun harakat qilish; chet elga ko‘chish.

3. Ixtiyoriy migratsiya – shaxsiy xohish- istaklar bilan yo‘g‘rilgan, ishlash yoki o‘qish maqsadida amalga oshirilgan migratsiya.

4. Majburiy migratsiya – tashqi omillar , jumladan, urush, tabiiy ofatlar, yoki boshqalar sababli sodir bo‘lgan migratsiya.

5. Transit migratsiya – bir joylashuvda qisqa vaqtga qolish.

Migratsiya omillari: ushbu omillar ham ikki turga bo‘linadi, ichki omillar va tashqi omillar. Ichki omillarga:


- Yashash hududidagi salbiy holatlar, masalan, ishsizlik, qashshoqlik, tabiiy ofat yoki siyosiy instabillik kiradi.

Tashqi omillarga esa:

- Yangi hududdagi ish o‘rinlari, yaxshiroq daromad, xavfsizlik yoki yaxshiroq hayot sifati kabi omillar kiradi. [3]


Xalqaro miqyosda bo‘layotgan migratsiya esa asosan mehnat migratsiyasidan (xususan O‘zbekiston) iborat.

Endi esa O‘zbekistondan ohirgi yillarda amalga oshirilgan mehnat migratsiyasini tahlil qilamiz.



1-rasm. 2018-2022 –yillarda O‘zbekistondan ishlash uchun chiqib ketganlar soni.


Grafikda ko‘ringanidek ohirgi 3 yilda mehnat migratsiyasi yetarli darajada o‘sgan va uning tarkibiy qismlari ham oshgan. Migrantlar borgan davlatlar esa asosan Rossiya, Qozog‘iston, Turkiya va Janubiy Koreya bo‘lgan. Bu haqida keyingi chizmada tanishishingiz mumkin.



2-rasm. 2023-yilda O‘zbekistonni tark etgan mehnat muhojirlarining soni va malakatlar bo‘yicha kesimi.



Chizmada 2023 – yil holati bo‘yicha o‘zbek migrantlarining asosiy mehnat qiladigan mamlakatlar aks etgan. Undan kelib chiqadiki jami 2 milliondan ortiq migrantlarning deyarli 60 % Rossiya hududida , 200 mingdan sal kam qismi esa Qozog‘iston hududiga to‘g‘ri keladi. Turkiyaning ulushi esa 120 mingga boradi, va Koreyaning qismidan deyarli ikki marta katta. Bu degani O‘zbekistonni tark etayotgan ishchi kuchi asosan qo‘shni davlatlarga, aniqroq qilib aytganda muhim hamkorlardan biri Rossiyaga ketishgan. U yerdagi mehnat sharoitlari va ishchilarga yaratilgan imkoniyatlar Yevropa Ittifoqi davlatlaridan qolishmasada, migrantlar asosan og‘ir mehnat turlari, jumladan sanoat, qishloq xo‘jaligi, va asosiy qismi qurilish bilan band bo‘lgan.



3-rasm. Rossiyaga 2023-yilda borgan migrantlarning ish sohalari bo‘yicha tahlili

Ushbu rasmda ko‘ringanidek, ishchilarning asosiy qismi deyarli 53 foiz ko‘rsatkich bilan qurilishda faoliyat olib bormoqdalar. Undan keyin o‘rinlarda birin-ketin 13 va 9 foiz bilan ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalari egallagan. Qishloq xo‘jaligi, transport, tashqi savdo hamda turizm xizmatlari 7, 4, 3 % lik ko‘rsatkich bilan umumiy sonni to‘ldirib turibdi. Olinadigan xulosa shuki ishchi kuchining xizmat ko‘rsatish va bu yerda bo‘lmagan muhim sohalar (tibbiyot, ta‘lim, bank va moliya tizimi va h.k.)da faoliyat yuritmasligi uning sifatli kadr emasligidan va yetarli bilim-ko‘nikmalar olmaganidan deb baholanadi.

Bundan tashqari mehnat migratsiyasi orqali mamlakatga kiradigan pul oqimi ham kattalashadi. Birgina 2023-yilning o‘zida mazkur davlatlar va boshqa hududlardan O‘zbekistonga 11,4 mlrd AQSH dollari miqdorida pul summasi kirgan. [5] Bu esa mamlakat yalpi ichki mahsulotining katta qismini tashkil etadi hamda davlat iqtisodiyotidagi o‘z o‘rnini belgilaydi. O‘zbekiston migrantlarining asosiy qismini og‘ir sanoat, qurilish va transport sohasidaligini hisobga olsak bu summani ko‘tarish va qiymatini oshirish imkoni mavjud, ya‘ni migrantlarning ish haqi baland bo‘lgan va xavfsizroq sohalarda ishlashini ta‘minlash orqali bunga erishish mumkin.

**Xulosa.**

O‘zbekiston sharoitida ishchi kuchi resurslarining ko‘pligi va mehnat bozoridagi talabning pastligini hisobga olsak, mehnat migratsiyasiga bo‘lgan talab

oshib boraveradi. Hosil bo‘lgan muammolar: sifatli kadrlarning ham ichki ham tashqi bozorda yetishmasligi, ish joylarida yaxshi shart-sharoitlarning yaratilmagani hamda importyor davlatlarning turli hillanmaganligi asosiy muammo hisoblanadi. Ushbu muammolarni yechish uchun beriladigan bir nechta takliflar quyidagilardan iborat.

1. Bu talabni qondirish, ya’ni mamlakatimizda ortib borayotgan ishchi kuchi salohiyatidan to‘laqonli va samarali foydalanish uchun, eng avvalo, iqtisodiy jihatdan barqaror va farovon bo‘lgan xorijiy mehnat bozorlari bilan mustahkam va o‘zaro manfaatli aloqalar o‘rnatish lozim. Ayniqsa, Yevropa Ittifoqi va Amerika Qo‘shma Shtatlari kabi rivojlangan mamlakatlarning ochiq mehnat bozorlariga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish bugungi kunda dolzarb masalalardan biridir. Bu orqali nafaqat ishchi kuchining tashqi migratsiyasi qonuniy va tartibli yo‘lga qo‘yiladi, balki o‘zbekistonlik fuqarolar uchun xorijda munosib mehnat sharoitlari, ijtimoiy himoya, kasbiy o‘sish va malaka oshirish imkoniyatlari yaratiladi. Bunday yo‘nalishda ikki tomonlama yoki ko‘p tomonlama memorandumlar, xalqaro kelishuvlar, hamkorlik shartnomalari tuzish orqali migratsiya jarayonini huquqiy asosda tartibga solish va boshqarish muhim ahamiyat kasb etadi. Ishchi kuchi oqimini boshqarish bo‘yicha aniq, zamonaviy mexanizmlarni ishlab chiqish va ularni amaliyotga tatbiq etish orqali, mamlakat ichidagi ishsizlik darajasini kamaytirish, mehnatga layoqatli aholini band qilish darajasini oshirish hamda fuqarolarning xorijdagi mehnat faoliyati orqali o‘z yurtiga baraka olib kirish imkoniyatlari kengayadi. Ayniqsa, xorijdan yuboriladigan pul o‘tkazmalari orqali mamlakat iqtisodiyotiga tushadigan daromadlar nafaqat alohida oilalar, balki butun hududlar iqtisodiy barqarorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

2. Shu bilan birga, mehnat migratsiyasining insoniy, ijtimoiy va madaniy jihatlarini ham e’tibordan chetda qoldirmaslik lozim. Odamlar xorijda ishlash jarayonida o‘z yurtini vakillik qiladi, boshqa xalqlar madaniyati bilan tanishadi, o‘z bilim va tajribasini oshiradi. Bu esa, uzoq muddatli istiqbolda, mamlakatimizga yuqori malakali, tajribali va xalqaro qarashlarga ega kadrlar safining kengayishiga xizmat qiladi. Shu bois, ushbu sohadagi har qanday strategik qarorlar puxta o‘ylangan, xalqaro tajribaga tayanilgan va inson manfaatlarini ustuvor deb bilgan yondashuvga asoslanmog‘i zarur. Ana shunda migratsiya mamlakat iqtisodiy taraqqiyoti uchun kuchli va barqaror turtkiga aylanishi mumkin.

3. Migrantlarning ishlash hududidagi xavfsizligini ta’minlash va ular uchun bemalol, munosib mehnat sharoitlarini yaratish bugungi kunda dolzarb va muhim masalalardan biridir. Tashqi mehnat migratsiyasida ishtirok etayotgan fuqarolarning xorijdagi huquqlari, ijtimoiy himoyasi va xavfsizligi har doim ustuvor vazifalardan biri bo‘lishi kerak. Mehnatkashlar o‘zlarini begona yurtda ishonch bilan his qilishi, mehnat shartlari aniq va adolatli bo‘lishi, turar joy, tibbiy xizmat va zaruriy huquqiy yordam bilan ta’minlangan bo‘lishi zarur. Zero, ularning samarali va tinch mehnat faoliyati nafaqat shaxsiy manfaatlariga, balki mamlakatimiz iqtisodiy barqarorligiga ham bevosita xizmat qiladi. Shu bois, bu yo‘nalishda harakatlar doimiy nazorat va rivojga muhtojdir.

4. Tashqi fuqarolik huquqlarini himoya qilish mehnat migrantlarining xorijdagi huquqiy holatini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega. Chet elda ishlayotgan fuqarolar o‘z huquqlarining buzilmasligiga, adolatli munosabat va qonuniy

himoyaga ega bo'lishlariga ishonch hosil qilishi lozim. Bu esa, elchixonalar, konsulliklar va xalqaro tashkilotlar bilan faol hamkorlikda olib boriladigan ishlar orqali ta'minlanadi. Har bir migrant bilishi kerakki, u qayerda bo'lmasin – davlat uni himoya qilishga mas'ul. Ana shunday yondashuv xorijda ishlayotgan yurtdoshlarimizni ijtimoiy va huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

5. Mamlakatga pul o'tkazmalari ustidan olinadigan soliqlar va bojlarni qisqartirish, va boshqa harakatlar orqali O'zbekistonning tashqi migratsiyasini rivojlantirish va yaxshilash mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

1. UNDP. Migrant Survey Report. 2023. URL: [https://www.undp.org/sites/g/files/zskgke326/files/2023-01/Migrant%20Survey%20Report\\_Final\\_UNDP.docx\\_.pdf](https://www.undp.org/sites/g/files/zskgke326/files/2023-01/Migrant%20Survey%20Report_Final_UNDP.docx_.pdf) (дата обращения: 10.06.2025).
2. Center for Economic Research and Reforms. Labor migration and national development strategies. Strategy.uz, 2023. URL: <https://kulturnistudia.cz/causes-and-impacts-of-labour-migration-in-uzbekistan/> (дата обращения: 10.06.2025).
3. G'ulomov S. S. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2019.
4. Goldin I. The Shortest History of Migration. – London: Old Street Publishing, 2021.
5. Exploring migration causes: why people migrate. European Parliament. URL: <https://www.europarl.europa.eu/topics/en/article/20200624STO81906/exploring-migration-causes-why-people-migrate> (дата обращения: 10.06.2025).
6. Massey D. S., Arango J., Hugo G. et al. Worlds in Motion: Understanding International Migration at the End of the Millennium. – Oxford: Oxford University Press, 1998.
7. Collier P. Exodus: How Migration is Changing Our World. – Oxford: Oxford University Press, 2013.